

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI IQTISODIYOT FAKULTETI
301-TURIZM GURUH TOLIBI QALANDAROV JAMOLBEKNING
TURIZM MENEJMENTI FANIDAN**

KURSISHI

M A V Z U :

**Turizmni boshqarishdagi ilg'or texnologiyalar va
ularni joriy qilish.**

Bajardi:

Qalandarov Jamolbek

Qabul qildi:

Xudayberganov Dilshod

R E J A :

Kirish

- 1. O'zbekistonda Turizm.***
- 2. Turizmni rivojlanishida ilg'or texnologiyalarning o'rni.***
- 3. Ilg'or texnologiyalarni jalb qilishda turistik yarmarkalarning o'rni.***
- 4. O'zbekistonda turizmning rivojlanishi.***
- 5. Xulosa***
- 6. Foydalanilgan manbalar.***

1. O’zbekistonda turizm.

O’zbekiston – turli davralrga mansub yuzlab me’moriy obidalarga ega bo’lgan mahobatli shaharlar mamlakati. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent va Qo’qon butun dunyoga mashhur. Rim va Bobilga tengdosh bo’lgan ushbu shaharlar XIV-XV asrlarda, Amir Temur hukmronlik qilgan vaqtida ayniqsa gullab-yashnadi. Bir paytlar bu shaharlar madaniyat va ilm-fanning eng yirik markazlari bo’lgan. Ularga o’sha davrning eng buyuk olimlari va mohir hunarmandlari to’plangan. Dunyo o’tmishning atoqli me’morlari barpo etgan saroylar, minoralar, masjidlar, maqbaralarning hashamadorligi va mahobatidan hayratda qolgan. Butun dunyoga mashhur bo’lgan qadimiy me’moriy obidalar hali ham Iskandar Zulqarnayn va Chingizzon istilolari davrini xotirlaydi. Jahon tamadduni tarixida eng salmoqli yutuqlaridan biri bo’lgan Buyuk ipak yoli ham ana shu shaharlar orqali o’tgan. Hozir ham qadimiylik nafasi ufurib turgan ushbu tarixiy shaharlarga kelgan sayyoohlarning shinam va xavfsiz bo’lishlarini ta’minlash uchun ko’p sa’y-harakatlar qilindi. Ko’plab yangi mehmonxona va mehmon uylari ochildi, yangi restoran va kafelar xalqaro standartlar darajasiga yetdi, yengil avtomobillar, shinam sayyoohlilik avtobuslaridan tortib juda tez yuradigan poyezdlar va samolyotlarga qadar, transport vositalari borgan sari ko’p sayyoohlarni tashimoqda. O’zbekiston poytaxti – Toshkentdan 85 kilometr janubi-sharqda joylashgan va O’rta Osiyoning noyob tog’-chang’i kurorti hisoblangan yuqori tog’lik Chimyon qishlog’i (dengiz sathidan 1650 metr balandda) ekologik va ekstremal turizm muhlislarida borgan sari ko’proq mashhur bo’lib boryapti.

Nima uchun O’zbekiston?

Toshkent Markaziy Osiyodagi eng katta shahar bo’lib, unda 3 millionga yaqin kishi yashaydi, Toshkent viloyatida ham taxminan 2 million kishi yashamoqda. O’zbekiston aholisi 28 million kishi bo’lib, Markaziy Osiyoda eng ko’p aholi yashaydigan respublika hisoblanadi. O’zbekiston paxta yetishtirish bo’yicha 5 – o’rinda va paxta eksport qilish bo’yicha 3-o’rinda turadi. O’zbekiston oltin qazib olish bo’yicha yetakchi bo’lib, dunyodagi eng yirik kar’yerga ega, shuningdek ko’mir, uran, gaz va neftning salmoqli zaxiralari mavjud. Yiliga 80 tonna qazib

olib, O'zbekiston oltin qazib olish bo'yicha dunyoda 7-o'rinni va oltin zaxiralari bo'yicha 4-o'rinni egallaydi. Shuningdek O'zbekiston tabiiy gazning boy zaxiralariga ega, undan ichki iste'mol bozorida foydalilanadi va muvaffaqiyat bilan eksport qilinyapti.

Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasida O'zbekiston eng yirik iste'mol bozoriga egadir. Mazkur bozorda eksport savdosini samarali rivojlantirish uchun O'zbekistonda bilim va tajribasi kompaniyangiz muvaffaqiyatga erishishda yordam beradigan ishonchli hamkorlarni topish lozim.

E'tibor markazida – Ipak yo'lida turizmni rivojlantirish masalalari.

O'zbekiston delegatsiyasi BMT Juhon turistik tashkiloti (UNWTO) "Ipak yo'li" dasturi Ishchi guruhining majlisida ishtirok etdi, u Londonda "World Travel Market" xalqaro turistik yarmarkasini o'tkazish kunlarida o'tkazildi.

BMT Juhon turistik tashkiloti (UNWTO) "Ipak yo'li" dasturi Ishchi guruhining majlisi borishida Dastur ishtirokchi mamlakatlarining vakillari tomonidan 2012 – 2013 yillarda Ipak yo'lida turizmni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar rejasini tayyorlash masalalari ko'rildi, mazkur Dasturni rivojlantirish yo'llari, muhim faoliyat va ustuvorliklari belgilandi.

Ishchi guruhning e'tibori Ipak yo'lida turizmni rivojlantirish bo'yicha harakatlar rejasini, shu jumladan uzoq va qisqa muddatli maqsadlarni amalgalashga yo'naltirildi, mazkur sektor sub'yeqtalarining "Ipak yo'li" brendini jahon turistik bozorlariga olib chiqish, sohadagi hamkorlik qilish masalalari, shuningdek transkontinental magistralda turizmni rivojlantirish istiqbollari ko'rildi.

"O'zbekturizm" MK rahbariyatining nutqida mamlakatda turizmni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston hukumati tomonidan ko'rilibotgan tadbirlar to'g'risida ma'lum qilindi, poytaxtda shu yilning 2 – 4 noyabrida o'tkazilgan Toshkent Xalqaro turistik yarmarkasining natijalari qayd etildi.

Bundan tashqari, O’zbekiston tarafi respublika ahamiyatidagi magistrallarning asosiy chorrahalarida – “Buyuk ipak yo’li” bo’ylab ommalashgan turistik yo’nalishda turistik yo’l belgilari o’rnatish taklifi bilan chiqdi.

Eslatib o’tamiz, “2010 – 2011 yillarda Ipak yo’lida turizmni rivojlantirish bo’yicha harakatlar rejasi” UNWTOning 2010 yil oktyabrida Samarqandda bo’lib o’tgan “Ipak yo’lida turizmni rivojlantirish” majlisida qabul qilingan edi. Mazkur Harakatlar rejasi Ipak yo’lidagi turizm bilan bog’liq asosiy masalalarni qamrab oladi va marketing hamda “Ipak yo’li” brendini bozorga olib kirish, turistik salohiyatni o’stirish va Ipak yo’lidagi turistik markazlarni boshqarish, Ipak yo’li bo’ylab sayohatlarni yengillashtirish kabi muhim sohalarda faoliyatning strategik turlarini belgilaydi.

“Ipak yo’li” UNWTOning tashabbusi sifatida bundan kamida o’n besh avval paydo bo’lganligini qayd etish lozim. 1994 yilda, “Ipak yo’li” markazi bo’lgan Samarqand shahrining mashhur Registon maydonida 19 mamlakat vakillari tomonidan tarixiy Samarqand deklaratsiyasi qabul qilingan edi. 1993 yildan UNWTO a’zosi bo’lgan O’zbekiston xalqaro turizmni rivojlantirish bo’yicha faoliyish olib boryapti, bunday turizm nafaqat dunyoni bilish uchun xizmat qiladi, balki xalqlarni yaqinlashtirishning noyob vositasi rolida ham chiqyapti.

O’zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari.

2011 yil 9 dekabrda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh. Mirziyoyev raisligida turizm sohasini yanada rivojlantirish va turistik xizmatlar eksportini ko’paytirish masalalariga bag’ishlangan kengash bo’lib o’tdi, unda vazirliklar, idoralar, xo’jalik birlashmalari va hokimliklarning rahbarlari qatnashdilar.

Kengashning 27.12.2011 yildagi №01-14/1-299—son bayonnomasiga ko’ra yaqin istiqbolda 2011—2012 yillar davrida turizm sohasini rivojlantirish va mintaqalar turistik xizmatlarining eksport salohiyatini ko’paytirish bo’yicha tasdiqlangan aniq tadbirlar dasturlarini bajarish, turizm infratuzilmasini

rivojlantirish, shuningdek mamlakatning turistik salohiyatini xorijiy turistik bozorlarga olib chiqish uchun turizmni rivojlantirishning o'rta muddatli va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha qator tadbirlarni amalga oshirish mo'ljallangan.

Xususan, turistik bazalar, dam olish zonalari, pansionatlar, sanatoriylar—kurort, davolash—sog'lomlashtirish, sport sog'lomlashtirish, rekreatsiya va ekoturistik tashkilotlar hamda muassasalarning yagona reyestrini yaratish rejorashtirilgan. Mahalliy turistlarni mamlakat bo'ylab sayohatlarga jalgan etish uchun 2012—2013 yillarda ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy dasturlar tayyorlash to'g'risida qaror qabul qilindi, ularni amalga oshirish dam oluvchilar uchun qulay sharoitlar yaratishga va o'zbekistonliklarning respublika turistik ob'yektlariga qiziqishini oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga 2012—2016 yillar davrida O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha choralar kompleksini tayyorlash ustida ish olib borilyapti.

Bayonnomada yo'lardagi turistik ko'rsatkichlar namunalarini ishlab chiqish ham nazarda tutilgan, ular respublikaning aeroportlari, temir yo'l vokzallari, turistik shaharlarda va avtomagistrallarida o'rnatiladi.

Turizm sohasidagi kadrlar malakasini oshirish bobida turistlarga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan tashkilotlar uchun "Mehmonparvarlik va servis darslari" mavzusida seminarlar o'tkazish mo'ljallangan. Ushbu dolzarb vazifa "O'zbekturizm" MKning Respublika ilmiy—o'quv konsalting markazi zimmasiga yuklangan, u o'z zimmasiga o'quv tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish funksiyalarini ham oladi.

O'zbekistonning xorijdagi turistik imkoniyatlarini namoyish etadigan tadbirlarni tashkil etish ishi davom etyapti. Shuni ta'kidlash lozimki, tugayotgan yilda O'zbekiston Respublikasining xorijdagi vakolatxonalari tomonidan respublikaning turistik salohiyati taqdimoti bo'yicha jami 400 dan ortiq tadbir o'tkazildi, bu esa O'zbekistonga qo'shimcha turistik oqimlarini jalb etishga imkon berdi.

Bayonnomada O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan butun bir qator boshqa tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Zomin sayyoohlarni chorlaydi.

O‘zbekiston sayyoohlilik sohasidagi salohiyati va tarixiy joylar ko‘pligi bo‘yicha dunyodagi yetakchi o‘n mamlakat qatorida turadi. Mamlakatimizda to‘rt mingdan ziyod tarixiy va madaniy yodgorlik bor. Qadimi shaharlarimiz, go‘zal tabiatimiz, boy va rang-barang madaniyatimiz asrlar osha dunyo ahlini o‘ziga maftun etib kelmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan sayyoohlilik infratuzilmasini izchil rivojlantirish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar yuksak samaralar bermoqda. Zamonaviy mehmonxonalar, dam olish maskanlari tobora ko‘payib, ularda servis xizmati tubdan yaxshilanayotir. Yangi sayyoohlilik marshrutlari ishlab chiqilayotgani, mavjud transport kommunikatsiyalari ta’mirlanib, yangilari barpo etilayotgani yurtimizga kelayotgan xorijlik sayyoohlar ko‘payishiga, ichki sayyoohlilik rivojiga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda sayyoohlilik infratuzilmasini yanada rivojlantirish, jahon ahliga turistik salohiyatimiz haqida ko‘proq ma’lumot berish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Jizzax viloyati hokimligi va BMT Taraqqiyot dasturining “Mahalliy boshqaruв tizimini qo‘llab-quvvatlash: fuqarolik ishtiroki va hamkorlik” loyihasi hamkorligida Jizzax viloyati Zomin tumanining sayyoohlilik va sarmoyaviy salohiyatini namoyish etish va yuksaltirishga bag‘ishlangan loyiha amalga oshirilmoqda.

Mazkur loyiha doirasida O‘zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi huzuridagi kurortlar boshqarmasi va BMT Taraqqiyot dasturining mamlakatimizdagи vakolatxonasi tomonidan sayyoohlilik firma va kompaniyalari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari uchun Zomin tumani bo‘ylab info-tur tashkil etildi.

Tog‘lar bag‘rida, dengiz sathidan 3000 metr balandlikda joylashgan Zomin betakror tabiat, yam-yashil archazorlari, shifobaxsh havosi, ming dardga davo o‘simgulkari bilan mashhur. Zomin tumanida turizmni rivojlantirishda muhim bo‘lgan hamda ko‘plab dam olish-sog‘lomlashtirish maskanlari faoliyat ko‘rsatmoqda. “Zomin” sanatoriysi ulardan biridir.

“Zomin” sanatoriysi tuman markazidan 50 kilometr uzoqlikda, Turkiston tog‘ tizmasining shimoliy etaklarida, dengiz sathidan 2000 metr balandlikda, qo‘riqxonaning hududida, archazorlar orasida joylashgan. Shu bois atmosfera bosimi nisbatan past, havoning kislorod va quyoshdan kelayotgan ultrabinafsha nurga boyligi yuqori nafas yo‘llari va asab tizimi kasalliklarini davolashda juda samaralidir.

Sihatgoh davolash bo‘limi zamonaviy diagnostika va davolash uskunalarini bilan jihozlangan, yuqori malakali shifokor va hamshiralarni faoliyat ko‘rsatadi. Laborator-tashxis xonasi, UZI, EKG, stomatologiya, ginekologiya bo‘limlari ishlab turibdi. Bu yerga kelgan har bir davolanuvchi shifokor ko‘rigidan o‘tkazilgach, zarur muolajalar tayinlanadi. Davolash jarayonida fizioterapiyadan keng foydalaniлади. Dam oluvchilar ikkita yopiq suzish havzasi, sauna, dorili, marvaridli vannalar, turli xil dushlar, suv osti massajlari, balchiq bilan davolash muolajalaridan ham foydalanishlari mumkin.

Sanatoriyyada natriy-xlorli tuz bilan davolash usulidan (galoterapiya) va zamonaviy ingalyatsiya uskunasidan keng foydalaniлади. Bularning barchasi bemorlarning tez fursatda sog‘ayishi va miriqib dam olishiga xizmat qiladi. Sihatgohda bronxial astma, polinoz, vozomotor rinit, surunkali bronxit, teridagi toshmali dermatit, asab tizimi kasalliklari, umumiyligida nevroz, nevrosteniya kabi kasalliklarga chalingan bemorlar shifo topadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda sayyoхlikning ekoturizm, ekstremal, ma’rifiy, madaniy va jismoniy sayohatlar kabi turlari ham izchil rivojlanmoqda. Sayyoхlar orasida alpinistlar, chang‘i sportiga qiziquvchilar ko‘paymoqda. Shu bois “Zomin” sanatoriysi hududida uzunligi 350 metrlik tog‘-chang‘i sporti trassasi barpo etildi. Bunda ushbu sport turiga qiziquvchilar, xususan, uni o‘рганиш istagidagi bolalar va kattalar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bunday sa’y-harakatlar mamlakatimizda chang‘i sporti yo‘nalishidagi sayyoхlikni yanada rivojlantirishga va qish mavsumida yurtimizga keladigan sayyoхlar oqimining ko‘payishiga xizmat qilmoqda.

Zomin tumani sayyohlik salohiyatini yanada oshirish maqsadida “Mahalliy boshqaruv tizimini qo‘llab-quvvatlash: fuqarolik ishtiroki va hamkorlik” loyihasi doirasida namunaviy brend va marketing strategiyasi ishlab chiqildi, shuningdek, uch tilda logotip va shior tayyorlandi.

– Tashkilotimiz O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan hamkorlikda Jizzax va Namangan viloyatlarida sayyohlikni rivojlantirishga oid qo‘shma loyihalarni amalgalashmoqda, – deydi BMT Taraqqiyot dasturining “Mahalliy boshqaruv tizimini qo‘llab-quvvatlash: fuqarolik ishtiroki va hamkorlik” loyihasi rahbari Dilshod Isroilov. – O‘zbekiston turizmni rivojlantirish borasida juda katta imkoniyatlarga ega. Mamlakatimizning go‘zal tabiat va iqlim sharoiti sayyohlikning sog‘lomlashtirish, ekologiya, madaniyat, kurort kabi yo‘nalishlarini ham rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Ajoyib tabiat, flora va faunaga ega Zomin tumanining sayyohlik sohasidagi salohiyati juda yuqori. Shu sababli davlat va mahalliy boshqaruv organlari bilan hamkorlikda mazkur hududda ichki va xalqaro turizmni yanada rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan brend va marketing strategiyasi kabi qator takliflarni o‘z ichiga olgan loyihani amalgalashmojamiz. Bu Jizzax viloyatining noyob madaniyatini targ‘ib qilishga, aholining farovonligini yanada oshirishga, yangi ish joylari yaratilishiga xizmat qiladi.

Info-tur doirasida Zomin tumanining sayyohlik salohiyatiga bag‘ishlangan qator tadbirlar va taqdimot marosimlari bo‘lib o‘tdi. Anjumanlarda bu yerga qish mavsumida ham sayyoohlarni jalb qilish usullari, xalqaro va ichki turizmni, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirishga oid masalalar yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

2. Turizmni rivojlanishida ilg'or texnologiyalarning o'rni.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini barcha sohalarga izchil tatbiq etish ish va xizmatlar samaradorligini oshirish, vaqt va qog'ozni tejashda alohida ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz rahnamoligida mamlakatimizda mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar yuksak samara bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 4 mayda qabul qilingan davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarida yagona himoyalangan elektron pochtani va elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish hamda ulardan foydalanish chora-tadbirlariga oid qarori bunda muhim omil bo'layotir.

Qarorda tasdiqlangan ushbu tizimga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar rejasidavlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, turli tashkilot va idoralar o'rtaida aloqalarning samaradorligini oshirish, axborotlarning qog'oz va elektron manbalardagi oqimini maqbullashtirish hamda hujjatlarni saqlash, tahlil qilish, qayta ishslash uchun yagona axborot makonini yaratish imkonini bermoqda. Bu idora va tashkilotlarda qog'ozdan foydalanishni qisqartirishga xizmat qilayotir.

O'zbekiston Davlat soliq qo'mitasi tizimida ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, mijozlarga interaktiv xizmatlar ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda sohada axborot texnologiyalari va aloqa vositalarini o'z ichiga olgan axborot tizimlari shakllantirilgan.

Davlat soliq qo'mitasining matbuot xizmatidan ma'lum qilishlaricha, hozir soliq idoralarida qariyb 8 ming kompyuter mavjud bo'lib, ular ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotlardan to'laqonli foydalanish imkonini bermoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 8 yanvarda qabul qilingan "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim omil bo'layotir. Mazkur hujjatga muvofiq, soliq tizimida o'zaro sifatli elektron axborot almashinuvini joriy etish, davlat soliq xizmati organlari ishining

samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan o‘ttizga yaqin dasturiy mahsulotlar amaliyotga tatbiq qilindi. Jumladan, soliq to‘lovchilarga o‘ndan ortiq interaktiv, ya’ni qog‘ozsiz, masofali xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Tadbirkorlik subyektlarining hisobotlarini soliq idoralariga elektron ko‘rinishda yuborish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida “BEM – buxgalterga elektron madad” dasturiy mahsuloti yaratilib, amaliyotda keng qo‘llanmoqda.

Tizimda joriy qilingan korporativ axborot tarmog‘i orqali soliqqa oid va boshqa xizmat ma’lumotlari uzatilishi yo‘lga qo‘yildi. Uzatilayotgan axborot hajmining yil sayin o‘sishi mobaynida o‘zaro axborot almashish tizimi ham muntazam takomillashtirilmoqda. Shu maqsadda 2009 yilda korporativ aloqa kanali tarmog‘ini modernizatsiya qilish va yer usti kanallariga o‘tkazish ishlari amalga oshirilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri davlat soliq boshqarmalari va ulardagi 194 tuman, shahar davlat soliq inspeksiyalari optik tolali aloqa jihozlari bilan ta’minlandi. Natijada davlat soliq inspeksiyalarida ma’lumotlarni uzatish tezligi qariyb 35 barobar, hududiy soliq boshqarmalarida esa 71 barobar oshdi. Soliq to‘lovchilarga elektron raqamli imzo berish va hisobotlarni elektron ko‘rinishda qabul qilish, interaktiv xizmatlar ko‘rsatish yanada jadallahdi.

So‘nggi yillarda naqd pul tushumlari to‘g‘risida tezkor ma’lumotlarni qabul qilib, hududlarga avtomatik ravishda jo‘natuvchi “Naqd pul tushumlari hisobini yuritish”, “Soliq deklaratsiyalarini elektron tarzda topshirish”, “Bank-DSQ” kabi dasturiy mahsulotlar yaratildi. Bu nafaqat moddiy resurslarni tejash, balki vaqtidan unumli foydalanish imkonini ham berayotir. Soliq tushumlari haqidagi bank ma’lumotlari “Bank-DSQ” dasturi orqali soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalariga avtomatik ravishda kiritilmoqda. Buning uchun ilgari 8-10 soat sarflangan bo‘lsa, hozir bunga 4-5 daqiqa kifoya. Shuningdek, “Davlat budgeti va maqsadli jamg‘armalarga tushumlar hisobini yuritish 1-N” dasturining joriy etilishi soliq va boshqa majburiy to‘ovlar bo‘yicha kunlik tushumlar hisobini yuritish ishlarini avtomatlashtirishda qo‘l kelmoqda.

Yana bir dasturiy mahsulot – “Tekshirishlar reja-jadvalini shakllantirish” xodimlar ish unumini oshirib, vaqtning tejalishiga xizmat qilayotir. Misol uchun, tekshirishlarni muvofiqlashtirish ishlari bilan shug‘ullanuvchi 242 nafar xodim bir yilda o‘rta hisobda 8 ming 716 soat ish vaqt sarflagan bo‘lsa, dastur amaliyotga joriy etilgandan keyin bu vaqt 1075 soatgacha qisqardi, ya’ni 7 ming 641 soat tejaldi.

Ushbu dasturiy mahsulotlar yanada takomillashtirilib, ko‘p funksiyali dasturiy majmualarga birlashtirilmoqda. 2011 yilning birinchi choragida soliq to‘lovchilarining soliq majburiyatları hisobini yuritish ishlarini avtomatlashtirish, hisobot va statistik ma’lumotlarni olish imkoniyatini beruvchi “Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi” dasturiy majmuasi barcha davlat soliq inspeksiyalarida joriy etildi.

Ilgari budget va budgetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga inkassa topshiriqnomalarini qo‘yish uchun 1,5 mingga yaqin soliq inspektori jalg‘etilar edi. “Soliq qarzini elektron inkassa topshiriqnomalari orqali undirish” dasturiy mahsuloti amaliyotga joriy etilgach, buni har bir inspeksiyada bir xodim uddalamoqda. Qolaversa, 2010 yil davomida 3256 mingta inkassa topshiriqnomalarini chop etish uchun 6512 ming dona qog‘oz hamda printer texnikasi, butlovchi materiallar uchun 250 million so‘m sarflangan bo‘lsa, bu jarayon elektron shaklga o‘tkazilishi natijasida 35-40 tonna qog‘oz tejaldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 23 avgustda qabul qilingan “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida Davlat soliq qo‘mitasiga 10 turdag‘ interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish vazifasi yuklatilgan edi. Bu vazifaning bajarilishi natijasida soliq to‘lovchilar o‘z ofislarida turib, davlat soliq organlari faoliyati haqida axborot olish, ularga rasman murojaat etish, o‘zaro hisob-kitoblar va soliq solish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida

ma'lumotlar olish, moliyaviy va soliq hisobotlarini hamda yillik daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyalarini elektron shaklda taqdim etish imkoniga ega bo'ldi. Buning uchun soliq to'lovchilardan elektron raqamli imzo talab etiladi. Ushbu xizmat yo'lga qo'yilgach, ro'yxatga olingan elektron raqamli imzolar soni 2008-2010 yillar mobaynida 5,7 barobar oshgan bo'lsa, soliq hisobotlarini elektron shaklda taqdim etgan korxonalar soni so'nggi uch yil mobaynida 13,8 barobar ko'paydi.

Mahalliy hokimliklar huzuridagi ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalarida soliq to'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazish yuzasidan arizalarni qabul qilish, identifikatsiya raqamini berish hamda ularning ma'lumotlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha interaktiv davlat xizmatidan samarali foydalanilmoqda. Bu usul soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan so'rovnomalarni internet yordamida tez va sifatli qabul qilish, ular asosida yangi ro'yxatdan o'tayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga shu zahotiyoyq identifikatsiya raqami berish kabi qator afzalliklarga ega. Tizimdagi interaktiv xizmatlar, jumladan, moliya va soliq hisobotlarini elektron shaklda internet orqali jo'natish tizimi "Uzinfocom" markazi tomonidan o'rGANilib, ijobjiy xulosa berilgan. Ular haqida barcha ma'lumotlar Davlat soliq qo'mitasining www.soliq.uz rasmiy saytiga joylashtirilgan. Ushbu saytga murojaat etuvchilar soni so'nggi uch yil davomida 4 barobar oshgan.

Qog'ozsiz hujjat almashinuvining joriy etilishi, boshqa sohalarda bo'lgani kabi, Davlat soliq xizmati organlarida ham ishning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari kompleksining 2011 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari hamda 2012 yilgi vazifalarga bag'ishlangan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda kompleks tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2011 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosining ta'minlanishi, jumladan, sohalarda 2011 yil uchun belgilangan ko'rsatkichlar, ishlab chiqarishni

modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, innovatsiya va investitsiya loyihalarining bajarilishi, mahalliy ishlab chiqariladigan mahsulotlar turlarini, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis Senati va Qonunchilik Palatasining 2010 yil 12 noyabrdagi qo‘shma majlisida hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi ma’ruzalarida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minalash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

2011 yilda kompleks bo‘yicha jami 2 trillion 937 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, xizmatlar ko‘rsatildi. O‘sish sur’ati 2010 yilning shu davriga nisbatan 122,4 foizni tashkil etdi. Aholiga 1 trillion 614 milliard (120,5%) so‘mlik pullik xizmatlar ko‘rsatildi. Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo‘yicha 315,5 million AQSH dollari miqdorida mablag‘ o‘zlashtirildi yoki rejaga nisbatan 214 foizga bajarildi. Eksport prognozi ko‘rsatkichlari 162,6 foizni tashkil etdi.

Yig‘ilishda “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturining ijrosini ta’minalash borasida Kompleks tarkibidagi vazirlik va idoralar tomonidan olib borilgan ishlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga rasmiy veb-saytlar orqali axborot berish va interaktiv xizmatlari ko‘rsatishni kengaytirish borasida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi.

Shuningdek, 2011 yilda bolalar sporti obyektlari, suzish havzalari va bolalar musiqa hamda san’at maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash manzilli dasturlarining bajarilishi, sport obyektlaridan foydalanishning samaradorligini oshirish, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni o‘quv adabiyotlari, darsliklar bilan ta’minalashni yanada yaxshilash, kasb-hunar kollejlari 3-kurs o‘quvchilarining aniq ish joylarida ishlab chiqarish amaliyoti o‘tashini tashkil etish, bu yo‘nalishda ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlar hamkorligini kuchaytirish, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini takomillashtirish borasidagi ishlar atroflicha muhokama qilindi.

Kompleks yig‘ilishida davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy hokimlik organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishining holati,

sog‘liqni saqlash tizimida xususiy tibbiyot muassasalarining hozirgi ahvoli va istiqboldagi rejalar, respublikada pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari faoliyatini yanada yaxshilash masalalari ko‘rib chiqildi.

Yig‘ilishda Kompleks tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qo‘yilgan ustuvor vazifalar ijrosini og‘ishmay amalga oshirish yuzasidan qo‘srimcha chora-tadbirlar belgilab olindi, tegishli qarorlar qabul qilindi.

Ilm-fan va ishlab chiqarish hamkorligi samarasi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida “Innovatsiya – 2011” XVI xalqaro ilmiy-amaliy anjumani boshlandi.

O‘zbekistonda innovatsion faoliyatni jadal rivojlantirish bo‘yicha keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida istiqlolning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, aholi farovonligini yuksaltirish vazifalari belgilandi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanmay, yangi texnologiyalar, innovatsiya mahsulotlarini yaratmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo‘lmaydi. Ilm-fan va texnologiyalar nafaqat iqtisodiy o‘sish sur’atlari, balki davlatning jahon hamjamiyatidagi raqobatbardoshlik darajasini ham belgilaydi.

O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Strategik innovatsiyalar va axborotlashtirish markazi va boshqa davlat hamda jamoat tashkilotlari hamkorligida tashkil etilgan navbatdagi “Innovatsiya – 2011” xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida mamlakatimiz ilm-fanining eng so‘nggi yutuqlari va ishlab chiqarish salohiyati namoyish etilmoqda. Unda respublikamizning barcha viloyatlaridan sanoatchilar, olimlar, tadqiqotchilar, tadbirkorlar, iste’dodli yoshlar hamda Janubiy Koreya, Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Belarusdan mutaxassislar ishtirot etmoqda.

O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi A.Shayxov, Toshkent davlat texnika universiteti rektori A.Odilxo‘jayev, Strategik innovatsiyalar va axborotlashtirish

markazi direktori A.Qodirov va boshqalar ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, olimlar tomonidan yaratilayotgan ishlanmalardan samarali foydalanish, jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

Anjumanda davlatimiz rahbarining 2008 yil 15 iyulda qabul qilingan “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, intellektual mulkni himoya qilish va yanada rivojlantirish, yangi ishlanmalarni amaliyatga joriy qilish, innovatsion loyihalar ko‘lmini kengaytirish, mahalliy xomashyodan eksportbop mahsulot ishlab chiqarish, tabiiy resurslarni tejash, ekologik barqarorlikni mustahkamlashda keng imkoniyatlar yaratayotgani ta’kidlandi.

– Yangi texnologiyalarni ommalashtirish, turli mamlakatlar bilan tajriba va axborot almashishda xalqaro hamkorlik muhim o‘rin tutadi, – deydi Janubiy Koreyaning Konkuk universiteti Aviakosmos muhandisligi departamenti direktori Jey Li Vu. – Har bir mamlakatning milliy innovatsion tizimi o‘ziga xosdir, lekin ularning tuzilmasi bir-biriga o‘xhash bo‘lib, yangi texnologiyalarni yaratish va joriy etishga munosib hissa qo‘sheyotgan turli davlat va hududiy tashkilotlarni, ayrim ilmiy muassasalar hamda korxonalarni o‘z ichiga oladi. Men O‘zbekistonda oxirgi marta 3 yil ilgari bo‘lganman. O‘tgan vaqt ichida mamlakatingizda texnologiyalarni rivojlantirish borasida ko‘plab o‘zgarishlar yuz bergenining guvohi bo‘ldim. Yurtingiz bu yo‘nalishdagi muvaffaqiyatlarini yorqin namoyish etmoqda.

Strategik innovatsiyalar va axborotlashtirish markazi olimlari erishgan yutuqlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Sohadagi ilmiy ishlanmalar mamlakatimizdagi turli korxonalar, xususan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida samarali qo‘llanilmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinati korxonalari muntazam modernizatsiya qilinmoqda, ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlari bilan yaqin hamkorlik aloqalari, zamonaviy ishlab chiqarish talablari asosida birgalikda kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan, mehnat qilayotgan mutaxassislarining

malakasini oshirishga yordam beradigan o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish kompleksi faoliyat yuritmoqda. Korxona huzurida bevosita O‘zbekiston Fanlar akademiyasi bilan hamkorlik qiladigan texnologiyalar innovatsion markazi tashkil etilgan.

Ikki kunlik ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilari mamlakatimiz olimlari va jahon ilm-fani yutuqlaridan samarali foydalanish, ularning ishlab chiqarishga integratsiyalashuvi, xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha fikr almashadi. Eng muhim ilmiy-amaliy va ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha sakkizta seksiya ish olib boradi. Ularda iqtisodiyot tarmoqlaridagi innovatsion jarayonlar, ilg‘or texnologiyalar, tabiiy resurslarni tejash, tog‘-kon ishi va metallurgiya, ekologiya, axborot tizimlari, axborot xavfsizligi muammolariga oid ikki yuzga yaqin ma’ruza tinglanadi.

Xalqaro standartlar darajasida

Mamlakatimiz aloqa va axborotlashtirish tashkilotlari vakillari poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan xalqaro seminarda Sloveniya, Litva va Qozog‘istondan tashrif buyurgan hamkasblari bilan birgalikda O‘zbekistonda standartlashtirish va texnik tartibga solish tizimining holati hamda bu yo‘nalishdagi xalqaro tajribani muhokama qilishdi.

Tadbir O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, “Unicon.uz” – Fan-texnika va marketing tadqiqotlari davlat unitar korxonasi hamda O‘zbekiston radiotexnika, elektronika va aloqa ilmiy-texnik jamiyati tomonidan tashkil etildi.

Yuqori texnologiyalar va imkoniyatlar davrida turli texnik va texnologik normalar, jumladan, aloqa va axborotlashtirish sohasidagi me’yorlarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi ishlarda texnik tartibga solish mamlakatni ilmiy-texnik va iqtisodiy rivojlantirish darajasiga javob berishini, ilmiy yutuqlar va iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sishiga mos ravishda texnik me’yorlarni muntazam qayta ko‘rib chiqishga qaratilgan bo‘lishini e’tiborga olish zarur.

O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bosh direktorining birinchi o‘rinbosari A.Eshonxo‘jayev, O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish – “O‘zstandart” agentligi bosh direktori A.Abduvaliyev va

boshqalar mamlakatimizda Prezident Islom Karimov rahnamoligida aloqa, axborotlashtirish sohasi va softver sanoatida standartlashtirish hamda texnik tartibga solishni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilganini ta'kidladilar. Bu borada o'ndan ortiq tegishli qonunlar, Prezident va hukumat qarorlari qabul qilingan. Xususan, "Standartlashtirish to'g'risida"gi, "Metrologiya to'g'risida"gi, "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi va boshqa qonunlar amalda qo'llanilmoqda.

– O'zbekiston standartlashtirish va texnik tartibga solishni rivojlantirishning eng muhim bosqichida turibdi, – deydi "Iskratel" kompaniyasining (Sloveniya) texnik direktori, Xalqaro aloqa akademiyasi akademigi Drago Jepich. – Biz O'zbekiston bozorida 1995 yildan buyon faoliyat ko'rsatmoqdamiz. Hamkorlik davomida yurtingizda joriy qilingan me'yor va talablarning xalqaro standartlarga mos kelishi hamda bajarilishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidlashni istardim. Buning natijasida ishlab chiqaruvchilarning javobgarligi va ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi oshmoqda, texnologik uskunalar modernizatsiya qilinmoqda.

Seminarda standartlashtirish va texnik tartibga solish sohasidagi xalqaro tajriba va uni O'zbekistonda qo'llash masalalari ko'rib chiqildi. Bu borada izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar salmoqli natijalar berayotgani ta'kidlandi.

3. Ilg'or texnologiyalarni jalb qilishda turistik yarmarkalarining o'rni.

Zamonaviy axborot texnologiyalari ko'rgazmasi

Poytaxtimizdagi “Ko‘rgazma savdo markazi” majmuida Axborot texnologiyalari haftaligi doirasida an'anaviy “ICTExpo-2011” axborot texnologiyalari xalqaro ko‘rgazmasi boshlandi.

Tadbirning ochilishida O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bosh direktori H.Muhiddinov va boshqalar zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim omillaridan biri ekanligini ta’kidladi. Istiqlol yillarda mamlakatimiz bu borada ulkan yutuqlarga erishmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan axborotlashtirishni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan bo‘lib, bu boradagi davlat siyosati mamlakatimizning jahon axborot makoniga integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda.

“ICTExpo-2011” Toshkent, Buxoro va Farg‘ona shaharlarida o‘tkazilmoqda. Ko‘rgazmaning bir paytda uchta shaharda o‘tkazilayotgani mamlakatimizda axborot texnologiyalarini joriy etishning hududiy darjasini ham izchil oshayotganligidan dalolatdir. Bu yerga tashrif buyuradiganlar uchun tashkil etilgan veb-translatsiya ularga real vaqt rejimida bir yo‘la uchala ko‘rgazma eksponatlari bilan tanishish imkonini beradi.

An'anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “ICTExpo” Markaziy Osiyo mintaqasida muhim va nufuzli ko‘rgazmalardan biriga aylandi. Ikki yuzdan ziyod ishtirokchi kompaniya uchta shaharda axborot texnologiyalari sohasidagi yangiliklarni namoyish etmoqda. Bu axborot va kommunikatsiya nou-xaularini yaratish sohasi mutaxassislarining o‘ziga xos muloqotidir. Ko‘rgazmada mamlakatimiz kompaniyalaridan tashqari Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, Rossiya, Ukraina, Avstriya, Vengriya va boshqa davlatlar vakillari ham ishtirok etmoqda. Ular mobil tarmoqlardan keng polosali foydalanish xizmatlari, raqamli televide niye

texnologiyalari, teletibbiyot sohasidagi loyihalar va boshqa ko‘plab yangiliklarni taklif etmoqda.

Ko‘rgazmada O‘zbekiston axborot texnologiyalari sohasining yetakchi korxonalari, shuningdek, softmahsulotlar (dasturiy ta’minot) ishlab chiqaruvchi kompaniyalar, provayderlar, “Huawei Technologies”, “Nokia-Siemens”, “ZTE Corporation”, “Uzbektelecom”, “East Telecom”, “Sarkor Telecom”, “Ucell”, “MTC-Uzbekistan”, “Unitech”, “Teleset Alfa”, “UCD Micros”, “Agata Impex” kabi kompaniyalar, telekommunikatsiya uskunalarini yetkazib beruvchilar, vazirlik va idoralar vakillari o‘zlarining qiziqarli stendlari va bo‘limlarini tashkil etgan.

Ko‘rgazmada, ayniqsa, mamlakatimiz telekommunikatsiya bozorining yetakchisi hisoblangan “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi pavilyoni ko‘pchilikda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Kompaniya zamonaviy telekommunikatsiya tarmog‘idan foydalangan holda ovozli aloqa, ma’lumotlar va teleradioeshittirish dasturlarini uzatish xizmatlari, videokonferens-aloha, internetdan foydalanish bilan bog‘liq ko‘plab xizmat turlarini taklif etmoqda. “CDMA-450” standartiga asoslangan mobil aloqani joriy etish ishlari davom ettirilmoqda. Mahalliy telekommunikatsiya tarmog‘ida 2 million raqamni o‘z ichiga olgan ikki mingdan ziyod ATS mavjud. Ularning 93,9 foizini raqamli ATSlar tashkil qiladi. Kompaniyaning transport tarmog‘i ko‘p darajali boshqaruv, tarmoqning o‘zini o‘zi tekshirish va qayta tiklashini ta’minlaydigan yangi SDH tarmoq texnologiyalaridan foydalangan holda optik-tolali va radioreleli aloqa liniyalari negizida tashkil etilgan.

Ko‘rgazmada “Cisco”, “D-Kink”, “Zuxel”, “Patton” kabi dunyoga mashhur ishlab chiqaruvchi firmalar uskunalari bazasida ma’lumotlar uzatish tarmog‘ining mamlakatimizdagи yetakchi operatorlaridan biri “Sharq Telekom” kompaniyasi ham raqamli ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan holda turli xizmatlarni, ya’ni internet tarmog‘idan yuqori tezlik bilan foydalanish, telefoniya, ma’lumotlar uzatish tarmog‘i, kartochkali platforma, “Wi-Fi” texnologiyasi (internetdan simsiz foydalanish) va boshqa xizmatlarni o‘z ichiga olgan 15 turdagи xizmatni taklif etmoqda. “Sharq Telekom” kompaniyasi bosh direktorining o‘rinbosari

A.Sultonovning aytishicha, kompaniya ko‘rsatilayotgan xizmatlar turlarini kengaytirish va sifatini oshirish maqsadida jismoniy shaxslar uchun yangi – jahon axborot tarmog‘idan yangi “ADSL” texnologiyasi bo‘yicha foydalanish xizmatini joriy qilgan. Bu xizmat aholi uchun ham qulay, negaki u yuqori tezlik bilan ishlaydigan mavjud telefon liniyasi bo‘yicha ko‘rsatiladi va bu jarayonda telefon band bo‘lmaydi.

Xitoyning “ZTE Corporation” korporatsiyasi telekommunikatsiya uskunalari tizimlarini yetkazib beruvchi yirik korxonalardan. U O‘zbekiston bozorida bir necha yildan buyon muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Korporatsianing Toshkentdagи vakolatxonasi rahbari Yuy Xunkay mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotganini alohida ta’kidladi. “ZTE Corporation” O‘zbekiston korxona va tashkilotlariga keng turdagи yuqori o‘tkazuvchi radioreleli tizimlar, keng polosali mobil texnologiyalar, multimedya videokuzatuv tizimlari, mobil telefonlar va terminallarni taklif etmoqda. Mamlakatimizdagи “Ucell”, “Beeline”, “MTS”, “UzMobile” kabi yetakchi mobil operatorlari bilan samarali amaliy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularga terminal mahsulotlar – usb-modemlar, mobil telefonlar, ruterlar, smartfonlar, shuningdek, CDMA standartida ishlovchi mobil aloqa operatorlari uchun uskunalar yetkazib berildi.

Ko‘rgazma dasturi keng va rang-barang bo‘lib, undan ko‘plab ta’lim seminarlari, davra suhbatlari, shuningdek, ko‘ngilochar tadbirlar o‘rin olgan. Bundan tashqari, O‘zbekistonda internet-provaydengni rivojlantirish masalalari bo‘yicha davra suhbat, oliy o‘quv yurtlari, kollej va litseylar jamoalari o‘rtasida “O‘zko‘rgazmasavdo”ning asosiy pavilyonida kompyuter o‘yinlari bo‘yicha “Ict-students” kompyuter sporti universiadasi”, kompyuter o‘yinlari bo‘yicha “Uzbekistan Cyber Games – 2011” O‘zbekiston championatining final o‘yinlari o‘tkaziladi.

Namoyish etilayotgan ko‘rgazma keng jamoatchilikka O‘zbekistonda axborot hamjamiyatini shakllantirish borasida erishilgan muvaffaqiyatlar bilan tanishish imkonini beradi. Shubhasiz, “ICTExpo – 2011” mamlakatimiz axborot

texnologiyalari bozorini yanada rivojlantirish, mazkur sohada xalqaro hamkorlik ko‘lамини yanada kengaytirish va mustahkam amaliy aloqalarni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi.

Toshkent xalqaro turistik yarmarkasi

TXTY Markaziy Osiyo mintaqasi ko‘rgazmalari orasida alohida o‘rin egallaydi va haqli ravishda mamlakatda eng ko‘p mehmon to’playdigan tadbir hisoblanadi. Joriy yilda u 17-marta o’tkaziladi.

Bugungi kunda mamlakatda 710dan ortiq sayyohlik tashkilot faoliyat yurityapti, 261 firma mehmonxona xizmatlari ko‘rsatishga licenziya olgan. O‘zbekiston sayyohlik industriyasi keyingi yillarda jo’shqinlik bilan rivojlanyapti, ichki sayyohlik 19% o’sgan. 2010 yilda respublikaga olis xorij va MDH mamlakatlaridan 1 million 353 ming sayyoh kelgan. Xorijda dam olishga 560 mingga yaqin yurtdoshimiz chiqqan.

“O‘zbekturizm” xalqaro sayyohlik yarmarkasida

Ispaniyaning Madrid shahrida 18-22 yanvar kunlari bo‘lib o‘tgan “FITUR – 2012” xalqaro sayyohlik yarmarkasida mamlakatimizning turistik salohiyati keng namoyish etildi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida sayyohlik infratuzilmasini yanada rivojlantirish, yurtimiz sayyohlik salohiyatini xorijda keng targ‘ib etish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar o‘z samaralarini bermoqda. Mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar soni tobora oshib bormoqda. Xorijlik sayyohlarni O‘zbekistonga keng jalb etishda turli xalqaro ko‘rgazmalarning ahamiyati katta bo‘lmoqda.

“FITUR – 2012” xalqaro sayyohlik yarmarkasi O‘zbekistonning sayyohlik sohasidagi salohiyatini to‘la namoyish etish uchun qulay imkoniyat bo‘ldi. Ta’kidlash lozimki, “FITUR” eng yirik xalqaro yarmarkalardan biri sanaladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bu galgi yarmarkada 167 mamlakatdan o‘n mingga yaqin sayyohlik firma va kompaniyalari vakillari, ekspert va olimlar ishtirok etgan.

Madridda o‘tkazilgan nufuzli turizm forumida O‘zbekiston milliy stendi o‘zining betakror dizayni bilan yarmarka ishtirokchilari va mehmonlari e’tibori markazida bo‘ldi. Unda yorqin milliy matolar, mamlakatimizning go‘zal maskanlari tasvirlari, tarixiy obidalar yordamida yurtimizga xos muhit yaratilgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent shaharlarining diqqatga sazovor joylari haqidagi ma’lumotlar va suratlarni o‘z ichiga olgan albomlar sayyohlik yarmarkasi ishtirokchilari e’tiboriga havola etildi.

Xalqaro sayyohlik yarmarkasida mamlakatimizning “O‘zbekturizm”, “O‘zbekiston havo yo‘llari”, “O‘zbekiston temir yo‘llari”, shuningdek, “El Mundo Tour”, “Marco Polo Central Asia Travel” va “Megatour” kabi turistik kompaniyalari ishtirok etdi.

“O‘zbekturizm” kompaniyasidan ma’lum qilishicha, ushbu xalqaro yarmarkada ishtirok etish turizm sohasidagi o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, ikki va ko‘p tomonlama manfaatli shartnomalar tuzish, turistik biznes rivojining tendensiyalarini aniqlash, jahon sayyohlik bozoridagi yangiliklar va o‘zgarishlar bilan yaqindan tanishish, bu borada o‘zaro fikr va tajriba almashish imkonini bergen.

4. O'ZBEKISTONDA TURIZMNING RIVOJLANISHI.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar va shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi, turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashuvi, mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon iqtisodiyoti tajribalaridan ma'lumki, turizm sohasi mamlakat xazinasi uchun zarur bo'lgan valuta tushumini ta'minlash, yangi ish joylarini vujudga keltirish va shu bilan birgalikda aholining turmush darajasini ko'tarish uchun xizmat qiladi. Respublikamiz xalqaro turizm sohasidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan qo'shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. O'zbekistonning geografik o'rni, nihoyatda qulay, tabiiy iqlim sharoitiga ega ekanligi, insoniyat madaniy taraqqiyotida ham katta o'rin tutadi. O'zbekiston betakror, ajoyib tarixiy arxitektura yodgorliklari, shirin-shakar mevalari, xilma-xil milliy taomlari, ajoyib milliy an'analari, urf-odatlariga ega boigan mehmondo'st xalqiga ega. Bularning barchasi chet ellik turistlar e'tiborini o'ziga tortadi va kishilarni lol qoldiradi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda O'zbekistonda mavjud bo'lgan siyosiy barqarorlik ham muhim o'rin egallaydi.

Ammo xalqaro turizm taraqqiyoti darajasini yuqori bosqichga olib chiqishda hali ko'p islohotlarni amalga oshirish, kechiktirib bo'lmas chora-tadbirlarni belgilash va ularni jadallik bilan hayotga tatbiq etish lozim bo'ladi.

O'zbekistonda keyingi yillarda ajoyib qurilish inshootlari, madaniy dam olish maskanlari, ziyoratgohlar vujudga keldi. So'nggi yillarda respublikamizda o'zbek milliy kurashi, tennis va boshqa sport turlari bo'yicha jahon miqyosida championatlar o'tkazildi. Bu tadbirlar esa ko'pgina xorijiy mamlakatlardan turistlar kelishiga olib keldi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda bu omillarning roli ham anchagina.

Respublikadagi mavjud mehmonxonalardagi o'rin narxlari ba'zi bir sabablarga ko'ra jahondagi o'rtacha narxlardan yuqori bo'lib, turistlarning mehmonxonalarga bo'lgan talabidan yuqoridir. Har bir turist shinam, har tomonlama yaxshi jihozlangan joyni bir kechaga 50-60 dollarga sotib olishni xohlaydi. Bizdagि

mehmonxonalarda esa bir kecha uchun tunash 200-250 dollarga to'g'ri kelmoqda. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun respublikamizda so'nggi besh yil ichida mehmonxonalarning zamonaviy tiplari keng ko'lamda qurila boshlandi. Bular ichida «Interkontinental», «Sheraton», «Le-Meridian», «Otel O'zbekiston», «Afrosiyob», «Buxoro» mehmonxonalarini misol qilishimiz mumkin. Bu mehmonxonalar 4 va 5 yulduzli bo'lib, xalqaro darajaga to'liq javob bera oladi. Endigi vazifa esa mehmonxonalardagi narxlarni qayta ko'rib chiqib, ularni arzonlashtirishdan iborat.

O'zbekistonda bozor munosabatlari sharoitida xalqaro turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari davlat tomonidan belgilangan bo'lib, iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish uchun turli bitimlar, kelishuvlar amalga oshhilgan va oshirilmoqda. shu bilan bir vaqtida xalqaro turizmni rivojlantirishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar quyidagilardan iborat:

- xalqaro turizmda kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyatidan keng foydalanish va xalqaro bozorlarga chiqishga intilish;
- mahalliy axborot agentliklari orqali rivojlangan mamlakatlarni O'zbekistonning turistik imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirishga harakat qilish;
- turizm sohasida ishlaydigan mutaxassislarni chet ellarda bir yilda kamida bir marta malaka oshirishga yuborish, o'qitish, ular uchun barcha imkoniyatlarni yaratib, turistlarga sifatli xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish;
- respublikamiz vakillarining Yevropa mamlakatlarida o'tkaziladigan turistik yarmarkalarda doimiy ravishda ishtirok etishini ta'minlash;
- xalqaro turistik tashkilotlar bilan axborot almashishni yaxshilash, birgalikda faoliyat yurita oladigan davlatlar bilan qo'shma korxonalar tuzish va ular faoliyatini keng yo'lga qo'yish;
- ichki turistik bozorda o'zaro raqobatni yanada kuchaytirish va boshqa tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir.

Demak, xalqaro turizmni rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun g'oyatda zarur bo'lib, uning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turizm sohasi orqali

aholining moddiy farovonligini yaxshilash, ularni ish bilan ta'minlash uchun yangi ish o'rinalarini tashkil qilish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning rivojlanishi, unga bo'lgan munosabatning ijobiy tomonga siljishi bilan belgilanadi. Respublikamiz sharoitida, ayniqsa, o'rta va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda turizmning imkoniyatlari boshqa sohalarga qaraganda juda kattadir. Chunki respublikadagi iqtisodiy barqarorlik va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tilishi tadbirkorlarga keng yo'l ochishi bilan birga uni jadal rivojlantirish imkoniyatlarini tug'dirmoqda. Jahondagi har bir davlatning iqtisodiy yuksalishida eng asosiy omil — tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik va ijtimoiyadolatdir. O'zbekiston hozir Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan davlat bo'lib, o'ziga tadbirkorlar va ishbilarmonlarni, turistlarni jalb qiluvchi makonlardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz Prezidenti tomonidan 1999-yil 15-aprelda «2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi»ga imzo chekildi. Bu dastur mamlakatimizning ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda, turistlarga xizmat ko'rsatishning g'arbdagi zamonaviy andozalarini ham, sharqdagi mehmondo'stlik an'analarini ham o'zida mujassam qilgan milliy turizm modelini shakllantirish uchun yanada keng imkoniyatlarni yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi hamjahondagi yetakchi mamlakatlarining rivojlanish darajasiga erishish maqsadida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, shu jumladan, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish chora-tadbirlarini ko'rib chiqib, o'z milliy modeliga asoslangan holda turizm sohasini shakllantirish uchun barcha zaruriy ishlarni olib bormoqda. Ushbu milliy model birinchi navbatda ichki imkoniyatlarni, o'zbek xalqining mentalitetini va jahon andozalariga mos keladigan omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozimligini yoddan chiqarmaslik kerak. O'zbekistonning jahon turizm bozoridagi salohiyatiga baho beradigan bo'lsak, uning Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng yuqori imkoniyatlarga ega ekanligini ko'ramiz. Bu haqda, masalan, respublika hududida mavjud boigan to'rt mingdan ortiq qadimiy me'morchilik, monumental san'at yodgorliklari dalolat beradi. O'zbekiston tarixiy me'morchilik yodgorliklarning umumiyl soni bo'yicha

jahondagi yetakchi o'nta mamlakatlar qatoriga kiritilib, to'rtta yirik shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrizabz YUNESKO tomonidan jahon madaniyati yodgorliklari markazi sifatida tan olingen va xalqaro tashkilot tomonidan muhofazaga olingen.

Xalqaro turizm sohasi respublikamiz iqtisodiyoti uchun g'oyatda zarur boigan valuta tushumini ta'minlaydi. Turizmnинг respublika iqtisodiyoti uchun qanchalik zarur tarmoq ekanligini quyida keltirilgan jadval maiumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirishda tarixiy-madaniy obidalar bilan bir qatorda dam olish va madaniy hordiq chiqarish uchun xizmat qiladigan turistik obyektlarning ham mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga misol qilib har yili o'n millionlab turistlarni o'ziga jalb qilib, muvaffaqiyat bilan ishlayotgan Yevropadagi parklarni olishimiz mumkin. Bular ichida Parij «Disneyland»ining faoliyatini tahlil qilganimizda har yili bu yerga o'rtacha 15 mln.ga yaqin turistlar tashrif buyurishining guvohi boiamiz. O'zbekistonda ham shu kabi parklar sonini ko'paytirish imkoniyati yetarli hisoblanadi. Toshkentda 1997yildan boshlab Disneyland va Akvapark faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Lekin bunday parklar sonini ko'paytirish, xizmat sifatini yaxshilash va faoliyatini yanada kengaytirish uchun chet el investetsiyalarini jalb qilish, texnik imkoniyatlarini kengaytirishni talab qiladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi bu yoining eng samarali va kelajagi porloq ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida turizmning rivojlanishida turistik tashkilotlar va tadbirdorlarning o'rni kelajakda yanada ortib borishi kutilmoqda. Buni «O'zbekturizm» MK faoliyati misolida ko'rish mumkin. Hozirgi kunda respublikada 450 dan ortiq turistik firmalar mavjud boiib, ularning ish jarayoni Milliy Kompaniya tomonidan nazorat qilinib borilmoqda. Bizga maiumki, jahon tajribasida turizmni rivojlantirish uchun quyidagi iqtisodiy modellar qo'llaniladi: markazdan boshqarish, bozor va monetar rivojlanish yo'llari. Respublikamizda turizm asosan markazlashgan boshqaruv usulida rivojlantirilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda turizm iqtisodiyotining bozor modeli qo'llaniladi

va bunda ko'pgina ko'rsatkichlar davlat tomonidan (soliqlar va me'yoriy hujjatlar hamda normativlar orqali) boshqarilib turiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turizm sohasining monetar boshqaruv modeli moliyaviy boshqarishga asoslanadi. Bunday boshqaruv turistik mahsulotning o'sishiga olib keladi. Xalqaro turizmning bunday tartibga solinishi hozirda Yaponiya, Fransiya, Italiya kabi turizm rivojlangan mamlakatlarda yo'lga qo'yilgan.

Turizmni rivojlantirishda yangi bosqich.

O'zbekistonda turizm yuksalmoqda. Bugungi kunda bu narsa ochiq—oshkor holat bo'lib, buni hatto opponentlar ham inkor etolmaydilar deyish mumkin. Bu ijobjiy jarayonning asosiy omilidan biri, fikrimizcha, nafaqat turistik sektorni barqaror rivojlantirish, balki uning sifatini oshirish va ushbu istiqbolli hamda noyob ijtimoiy—iqtisodiy sohani boshqarishdagi tub o'zgartirishlardir.

Mamlakatimizda keyingi ikki yil ichida turizm rivojlanishini belgilaydigan eng muhim omillardan biri davlat bilan biznes o'rtaсидаги hamkorlikni mustahkamlash bo'layotganligi bugungi kunda ravshan bo'lib qoldi. Buni mamlakatimiz turbiznesi vakillari ijobjiy qabul qilganligi va qo'llab—quvvatlaganligi deklarativ emas, balki real voqelikka aylangan. Chunonchi, davlat va biznesning hamkorligini mustahkamlash maqsadida, O'zbekiston milliy turistik ma'muriyatining tashabbusiga ko'ra "50—guruh" (G—50), tashkil etilib, unga mamlakatning yetakchi turoperatorlari va ekspertlari kiritildi, shu tariqa, "O'zbekturizm" MK huzurida turistik faoliyatning turli jihatlari bo'yicha yeti komissiya yuzaga keldi. Komissiyalar ishi natijasida turizm to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, mamlakatni turistik yo'nalish sifatida jahon bozoriga olib chiqish, milliy mehmonxona klassifikatsiyasini barpo etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi, shuningdek boshqa marketing tashabbuslari amalga oshirildi.

Ular o'rtaсида kirish turizmi kanalida turistik mavsumni kengaytirishga va mamlakatimizga chet ellik turistlarning qo'shimcha oqimlarini jalb etishga yo'naltirilgan "mega—info—turlar" dasturi bor.

keyingi ikki yil ichida xalqaro turistik faoliyatda O’zbekistonning o’rni ancha o’sganligini qo’shimcha qilamiz. Eslatib o’tamiz, mamlakatimiz “O’zbekturizm” MK timsolida 1994 yildan boshlab BMT Jahon turistik Tashkiloti (UNWTO)ning a’zosi, 2004 yilda esa Samarqandda “Ipak yo’lidagi turizmni rivojlantirish” doirasida UNWTOning qo’llab-quvvatlash ofisi faoliyat yurityapti.

Jahon hamjamiyati tomonida 2010 yilda Samarqandda ushbu tarixiy transcontinental magistralda turizmni rivojlantirish bo'yicha UNWTOning yangi Harakatlar rejasи qabul qilinganligi navbatdagi muhim bosqichga aylandi.

UNWTOning ushbu noyob dasturida O’zbekistonning o’rni va imkoniyatlarini, turizmni rivojlantirishda davlatning katta manfaatdorligini, milliy turistik tashkilot va mamlakat turbiznesining faolligini hisobga olib, 2011 yilda Janubiy Koreyada o’tkazilgan UNWTO Bosh Assambleyasining 19-sessiyasida O’zbekiston raqobat asosida va yashirin ovoz berish yo’li bilan dunyodagi ushbu yetakchi turistik tashkilotning Ijroiya kengashiga saylandi.

Ushbu holat shuni ko’rsatdiki, hozirgi turizmning eng muhim muammolari va da’vatlariga doir O’zbekistonning fikrini jahon turistik jamiyati eshitibgina qolmay, balki mamlakatga strategic qarorlar qabul qilishda ta’sir ko’rsatishga imkon beradi ham. Shuni qo’shimcha qilamiz, hozirgi vaqtida UNWTO bilan hamkorlikda statistic hisobot usullarini xalqaro talablar bilan uyg’unlashtirish va turistik sektorning O’zbekiston iqtisodiyotiga amaldagi hissasini hisobga olish maqsadida Turizmdagi yordamchi hisobvaroq (TYH)ni mamlakatning milliy hisobvaroqlariga joriy etish bo'yicha faol ish olib borilyapti.

Ushbu ish natijasida, shuningdek turistik bozorni faollashtirish va, yana qo’shimcha qilmoqchimiz, davlat-xususiy hamkorligini kuchaytirish natijasida 2011 yilning dastlabki olti oyi yakunlari bo'yicha, O’zbekiston davlat statistika qo’mitasining ma'lumotlariga qaraganda, mamlakat yalpi ichki mahsulotiga turistik sektorning hissasi ikki baravardan ko’proq o’sdi va 1,8%ni tashkil qildi.

Yaqinda o’tkazilgan “Ipak yo’lidagi turizm–2011” deb nomlangan 17-Toshkent xalqaro turistik yarmarkasi (TXTY–2011) davlat va turbiznesning muvaffaqiyatli hamkorligi, shuningdek mamlakat turistik bozori ishtirokchilari faollashuvining

yana bir misoliga aylandi. Joriy yilda eksponentlar, professional mehmonlar va noyabrdagi mega–info–tur ishtirokchilari sifatida TXTY–2011da dunyoning 36 mamlakatidan kelgan 550dan ziyod chet ellik turoperator va xorijiy OAVning 60dan ortiq vakili ishtirok etdi. Yarmarka ekspozitsiyasining 114ta stend tashkil qildi, ulardan 65tasi xorijiy va 25 tashkiliy strendlar bo’lib, shuningdek 24 stendda hunarmandlar va milliy hunarmand ustalar mahsuloti namoyon etildi. O’tgan yilgi yarmarkada 82 stend (63tasi xorijiy va 19tasi milliy stendlar) namoyish etilganligini eslatib o’tamiz.

Chet ellik ishtirokchilarining TXTYga bo’lgan qiziqishi tushunarli ekanligini qayd etamiz – Toshkent xalqaro turistik yarmarkasi Jahon turistik tashkiloti – UNWTOning eng yirik yillik xalqaro tadbirlari ro’yxatiga kiradi, dunyodagi “Ipak yo’li” brendi ostida turistik mahsulotlarning keng doirasi taqdim etiladigan ozgina ko’rgazma turistik tadbirlaridan biridir.

Biroq bunga eng muhim holat bo’lib faol va, eng asosiysi, pirovard natijaga yo’naltirilgan, turoperatorlar va turistik xizmatlarni yetkazuvchilarining TXTY–2011 ishida ishtirok etishi hisoblanadi.

Bularning hammasini hisobga olib, 2012 yilda O’zbekistonga keladigan chet ellik mehmonlar sonini qariyb 30%ga oshirish va ko’rsatgichni 1,3 mln kishiga yetkazishni mo’ljallayotgan mamlakat milliy turistik ma’muriyatning prognozlariga qo’shilish mumkin.

F O Y D A L A N I L G A N M A N B A L A R :

1. Turizm iqtisodi(o'quv qo'llanma). S.Salayev Urganch 2002y.
2. Abraham Pizam & Yoel Mansfeld. Tourism, crime and International security issues. New York, 1997.
3. Turizm bo'yicha leksik minimum. Urganch 2002y.
4. I.S.Tuxliyev. Xalqaro turizm. Toshkent 2009y.
5. I.S.Tuxliyev. Turizmni rejalashtirish. Toshkent-Iqtisod Moliya 2010y.

Internet saytlari:

www.turizm.ru

www.travel.ru

www.palomnik.ru

www.ref.uz

www.ziyonet.uz

www.antimon.uz

www.google.uz

www.tdiu.uz

www.edu.uz

www.ziyouz.com